

---

## **TA'LIM TIZIMINI TEXNOLOGIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI VA VAZIFALARI**

**Shodmonov Xomidjon Mirzaaxmadovich**

*t.f.n, FarDU “Texnologik ta'lism” kafedrasi dotsenti.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada texnologiya, texnik va texnologik vositalarini ta'limga kirib kelish tarixi va ta'lism tizimini texnologiyalashtirishning ahamiyati, vazifalari hamda o'quvchi yoshlarni ijodiy mehnatga o'rgatishning asosiy yo'llari bayon qilingan.

**Annotation.** This article describes the history of the penetration of Technology, Technical and technological means into education and the importance, tasks and main ways to train students in creative work.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, texnologik yondashuv, texnologiyalashtirish, pedagogik texnika, texnik ijodkorlik, ijodiy loyiha, audio, video, telekommunikatsiya, informatsion texnika, AKT vositalari.

**Keywords:** technology, technological approach, technologization, pedagogical techniques, technical creativity, creative project, audio, video, telecommunications, informational techniques, ICT tools.

XX asr kishilik jmiyati taraqqiyoti tarixidan fan va texnika sohasida yuz bergan inqiloblar davri sifatida joy oldi. Ilm-fan va texnika rivojining yuksak sur'ati moddiy ishlab chiqarish jarayonini nazariy (g'oyaviy) hamda amaliy jihatdan boyitib borish bilan birga ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishini ta'minladi. Xizmat ko'rsatish sohalarining paydo bo'lishi, yangicha turmush tarzi kishilarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining ortib borishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ehtiyojlarining yangilanib hamda ortib borishi o'z navbatida ularning qisqa muddatda va sifatli qondirilishini ta'min etuvchi faoliyatning yo'lga qo'yilishini taqozo etdi.

Ijtimoiy zarurat mahsuli bo'lgan texnologiya sohasi va uning takomillashib borishi qisqa vaqt oralig'ida, kam jismoniy kuch sarflagan holda yuksak sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkonini berdi. Moddiy ishlab chiqarish, xom-ashyoni qayta ishslash sohalari (qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqalar) da mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv

an'anasi yuzaga keldi. Texnologik yondashuv ishlab chiqarish jarayonining umumiy tavsifini yoritishga xizmat qiladi.

Muayyan mahsulotni ishlab chiqarish maqsadida xom-ashyoni tanlash (dastlabki bosqich) dan mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan (so'nggi bosqich) davrini o'z ichiga olgan jarayon texnologik jarayon sifatida e'tirof etiladi. Ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv muayyan sohalarda islohotlarni tashkil etish, ularning muvaffaqiyatini ta'minlash, erishilgan yutuqlarni boyitib borish kabi maqsadlarga erishishning samarali omili sifatida namoyon bo'ladi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalariga zamonaviy, ilg'or, yuksak texnologiyalarning tadbiq etishi bir qator shartlar asosida kechadi, xususan, ilm-fan hamda texnikaning so'nggi yutuqlariga tayanish, yirik moliyaviy mablag'lar va yuksak darajadagi kasbiy mahoratga ega malakali mutaxassislarning mavjudligi bu boradagi yutuqlarni kafolatlaydi.

**Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish** g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa hamda AQShda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rta ga tashlandi. Mazkur g'oya 30-yillarda ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" ("ta'lim texnikasi") tushunchasining olib kirilishi bilan asoslanadi.

Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda "pedagogik (ta'lim) texnikasi" tushunchasi o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali quollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradlorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir, deya baholandi.

XX asrning 50-yillarda ta'limda texnik vositalarni qo'llash "Ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor o'quvchilar auditoriyasini kengaytirish vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individullashtirish kabi masalalarga qaratildi.

Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob'yekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini "texnologiyalashtirish" ning tashkiliy jihatlarini o'rganishga alohida urg'u berildi. 60-yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish "texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlndi.

Texnologik ta'lim amaliyoti fani talabalrda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, amaliy mashg'ulotlar jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatadi. Bu orqali hunarmandchilik asoslari, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari, elekrotexnik ishlar, elektronika asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirishni va kelajakda o'z sohasining yetuk mutaxassisini bo'lib yetishishini ko'zda tutgan.

Talabalarning mazkur fanni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'qitishda plakatlar, chizmalar, namunalar, yo'riqnomalar texnologik xaritalar, ko'rgazmali texnik vositalardan, kompyuter texnikasi, kinofilm, videofilm, diafilm, slayd va dasturlashtirilgan elektron didaktik vositalardan foydalanib, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilish ko'zda tutiladi.

Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga fan, texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi. Bugungi kunda ta'lim sohasida fan va texnikaning so'nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan audio, video, telekommunikatsiya va informatsion texnika va texnologiyalarning qo'llanilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va mashg'ulotlarda ularni qo'llashni o'rganish pedagogik muammolardan biri sanaladi.

Inson taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olg'a harakatlantiruvchi asosiy omil bo'lib kelgan. Yosh avlodni ijodiy mehnatga o'rgatish uni zamonasining eng ilg'or bilimlari bilan qurollantirish, barcha davrlarda barcha

halqlar uchun dolzarb vazifa hisoblangan. Jamiyat rivojlanar ekan har bir sohada rivojlanishni talab etadi.

Buning uchun o'quvchi yoshlarimizning ijodiy mehnatga o'rgatish, ularning qiziqish va qobiliyatlariga qarab quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirib borishimiz lozim:

- ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalar bilan ko'proq individual ishslash, ularning darsga qiziqishlarini oshirib, egallagan bilimlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

- ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, voqelikni kompleks o'rGANISH;

- ta'lim jarayonining moslashtiruvchanligi, shakllari va usullarini, texnologik bazasini zamonaviy AKT vositalarini joriy etish orqali takomilashtirib borishdan iborat.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.N. Azizzodjaeva "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat". Toshkent, 2005 yil.
2. O'.Q.Tolipov, M.Usmonxo'jayeva "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari". Toshkent, "FAN", 2006 yil.
3. T.G'affarova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" Toshkent, "Tafakkur", 2011 yil.